| <i>Mirzayeva Shaxida Abdinabiyevna, Mamanazarova Nargiza Komildjanovna</i>                                                                                                     |     |
| Maktab ta'lim jarayonida interaktiv simulyatoralarni VISC-5E pedagogik modeli asosida integratsiya samaradorligini tahlil qilish (Ixtisoslashtirilgan maktablar misolida)..... | 492 |
| <i>Qo'chqorov Shaxzod Begali o'g'li, Turabdjnov Sadritdin Maxamatdinovich</i>                                                                                                  |     |
| Rinolaliyada tovushlar talaffuzining rivojlanish xususiyatlari .....                                                                                                           | 500 |
| <i>Baltabayeva Durdona Erkin qizi</i>                                                                                                                                          |     |
| Intellectual mulk egalari muvaffaqiyatga erishishning psixologik omillari .....                                                                                                | 504 |
| <i>Shamshetov Jiyenbay Karamaddinovich</i>                                                                                                                                     |     |
| O'zbek xalq ertaklarida bola shaxsi ijtimoiy shakllanishiga doir pedagogik qarashlarning ifodalanishi.....                                                                     | 507 |
| <i>Askarova Zuhra Shavkat qizi</i>                                                                                                                                             |     |
| Turkiy yozma yodgorliklarda soletsizm fenomeni: genezisi va funksional xususiyatlari .....                                                                                     | 511 |
| <i>D. A. Raxmatova</i>                                                                                                                                                         |     |
| Bo'lajak pedagoglarni bolalar ijtimoiylashuvini boshqarishga tayyorlash metodikasi .....                                                                                       | 517 |
| <i>Toxtasunova Gulbaxor Abdurazzakovna</i>                                                                                                                                     |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Raqamli direktor" axborot-boshqaruv tizimini joriy etish va undan foydalanish mexanizmlari .....                                           | 521 |
| <i>Berdaliev Gulasal Abdukunduzovna</i>                                                                                                                                        |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....                                                                           | 526 |
| <i>Xomidova Dilorom Abduraxmonovna, Xoshimova Zuxra Sulton qizi</i>                                                                                                            |     |
| Current Problems of Teaching Instrumental Performance in the Field of Music Pedagogy .....                                                                                     | 531 |
| <i>Mirsadullaev Mirlaziz Mirmuslimovich</i>                                                                                                                                    |     |
| Methods of Forming the Readiness of Students With Disabilities for Lessons Using an Individual Approach.....                                                                   | 535 |
| <i>Kuzieva Gulnoza Makhamadaliyevna</i>                                                                                                                                        |     |
| Pedagogical Factors in Enhancing Performance Skills in a Choral Ensemble .....                                                                                                 | 540 |
| <i>Akhmedov Bakhodirkhon Sayfiddinovich</i>                                                                                                                                    |     |
| Yassaviy hikmatlarini adabiy sharhlash usuli orqali o'qitish.....                                                                                                              | 545 |
| <i>Kenjayeva Rayhona Muzaffar qizi</i>                                                                                                                                         |     |
| Yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish usullari: kinematik zanjir va integrativ yondashuv .....                                                       | 550 |
| <i>Yuldashova Madina Murodjon qizi</i>                                                                                                                                         |     |
| 10–13 yosh suzuvchilarning tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullari: sezgir davr va sportga xos yondashuv .....                                                  | 556 |
| <i>Ortiqova Ma'muraxon G'ulom qizi</i>                                                                                                                                         |     |
| Yosh taekvondochilarda qat'iy tartiblashtirilgan mashqlar (pumse)da tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullari .....                                               | 563 |
| <i>Vahobov Asadbek Akramjon o'g'li</i>                                                                                                                                         |     |
| O'zbek jang san'ati bilan shug'ullanuvchi sportchilarning tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirishda integrativ-milliy yondashuv usuli.....                               | 570 |
| <i>Jo'raboyeva Odinaxon Umid qizi</i>                                                                                                                                          |     |
| Maktab o'quvchilarini stol tennisi sport turiga qiziqtirish va ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi .....                                              | 576 |
| <i>Azimova Dilnoza Raximjon qizi</i>                                                                                                                                           |     |

|                                                                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Tibbiy madaniyatning psixologik xususiyatlari .....                                                                                                                 | 579 |
| <i>Asrarchanova E'tibor Abduvahob qizi</i>                                                                                                                          |     |
| Shaxsda agressiv xulq-atvorni shakllanishi borasida xorij psixologlarining yondashuvlari .....                                                                      | 582 |
| <i>Xojiakbarova Dildora Abdug'afforovna</i>                                                                                                                         |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalari.....                                          | 586 |
| <i>Sodiqova Shoista Akbarovna, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi</i>                                                                                                |     |
| Til ta'limining hozirgi holati.....                                                                                                                                 | 590 |
| <i>Kushkarbekova Marjan Usenovna</i>                                                                                                                                |     |
| Talabalarning ijodiy rivojlanishida kretivlikning asosiy yo'nalishlari .....                                                                                        | 593 |
| <i>Alimova Gulchehra Qobilovna</i>                                                                                                                                  |     |
| Xorijiy tillarni o'rganishda yozma nutqning ahamiyati.....                                                                                                          | 596 |
| <i>Safarova M. A.</i>                                                                                                                                               |     |
| Qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....                                                                                   | 600 |
| <i>Venera Allashova Tanirberdievna</i>                                                                                                                              |     |
| Интеграция искусственного интеллекта в образование: польза или вред.....                                                                                            | 602 |
| <i>Karimbayev Atabek Merdanovich</i>                                                                                                                                |     |
| Tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish usullari .....                                                                              | 606 |
| <i>Xolmurodova D. K., Safarova N. S.</i>                                                                                                                            |     |
| Intellektual avlod – sog'lom jamiyat poydevori: tibbiyot talabalarining o'quv jarayonida kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.....        | 610 |
| <i>Tursunbekova Nozima</i>                                                                                                                                          |     |
| Sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....                           | 613 |
| <i>Roziqov Normurod Elmonovich</i>                                                                                                                                  |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....                                     | 618 |
| <i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>                                                                                                                                |     |
| Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....                                                                     | 622 |
| <i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>                                                                                       |     |
| Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish .....                                | 626 |
| <i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>                                                                                                                              |     |
| 18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari .....                                  | 631 |
| <i>Djemilov Temur Rasimovich</i>                                                                                                                                    |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati..... | 636 |
| <i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>                                                                                                                          |     |
| Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....                                                                         | 641 |
| <i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>                                                                                                                           |     |
| Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....                                                            | 646 |
| <i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>                                                                                          |     |
| Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....                                             | 650 |
| <i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>                                                                                                                                  |     |
| Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....                                                     | 654 |
| <i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>                                                                                                                              |     |
| Yengil dizatriyalı bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....                                                                     | 658 |
| <i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>                                                                                                                                |     |
| Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....                                                                                                                                  | 662 |
| <i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>                                                                                                                                |     |



|                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....                                                                              | 665 |
| Abdullayeva Charos Farkhodovna                                                                                                          |     |
| Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils .....                                                  | 670 |
| Ataullayev Fazliddin                                                                                                                    |     |
| Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim<br>sifat va samaradorligiga ta'siri .....                 | 674 |
| Bovanova Umida Abduvahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi                                                                            |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya<br>texnologiyalarining roli .....          | 679 |
| Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna                                                                            |     |
| Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati .....                                                             | 683 |
| Eshmurodova Shirin Oybekovna                                                                                                            |     |
| Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari .....                                                       | 686 |
| Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li                                                                                                       |     |
| Talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari .....                                 | 689 |
| Omonova Nilufar Omon qizi                                                                                                               |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya<br>elementlaridan foydalanishning o'rni .....          | 694 |
| Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi                                                                        |     |
| Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish .....                          | 698 |
| Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna                                                                                                      |     |
| Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va<br>differensial yondashuvlar uyg'unligi ..... | 702 |
| Qurbonova Nafisa Saidjonovna                                                                                                            |     |
| Tárbiya pánin oqítw arqalı oqíwshılardıń kreativ qábiletin rawajlandırıw.....                                                           | 706 |
| Reymova Gulaim                                                                                                                          |     |
| Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari .....                                                                           | 710 |
| Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi                                                                                                          |     |
| Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi .....                                                                  | 714 |
| Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi                                                                   |     |
| The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....                                                      | 717 |
| Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich                                                                                                |     |
| Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....                                   | 722 |
| Sayfedinova Dildora Ikramiddinova                                                                                                       |     |
| Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal<br>maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish .....           | 726 |
| Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi                                                                   |     |
| Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida .....                                                                              | 730 |
| Ibragimova Shoira Normuminovna                                                                                                          |     |
| Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the<br>Rotational Method of Pushing the Core.....             | 733 |
| Tajimbetov Anvar Tengelbayevich                                                                                                         |     |
| Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....                     | 736 |
| Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich                                                                                                    |     |
| Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik<br>kompetentlikni rivojlantirish modeli .....                    | 743 |
| Usmonova Kamola Erkinovna                                                                                                               |     |
| Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....                             | 749 |
| X. A. Suyunova                                                                                                                          |     |
| Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni .....                                                | 752 |
| Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna                                                                                                   |     |
| Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida .....                                                    | 756 |
| Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li                                                                                                      |     |



|                                                                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам:<br>теоретико-методологический анализ .....                     | 760 |
| Абидова М. И., Абидова Д. М.                                                                                                                |     |
| Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей<br>дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....          | 764 |
| Амитова Майисия Рахмателлаевна                                                                                                              |     |
| Эффективные приемы презентации лексики на уроках инностранного языка .....                                                                  | 767 |
| Гилязиева Насиба Михайловна                                                                                                                 |     |
| Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...                                                    | 770 |
| Ислямова Сония Юнусовна                                                                                                                     |     |
| Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей<br>разных поколений: результаты современных исследований..... | 779 |
| У. Ш. Салимов                                                                                                                               |     |

# YENGIL DIZATRIYALI BOLALARDA NUTQNING BO'G'IN TUZILISHI VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Pardayeva Muxlisa Furqat qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, tayanch doktorant, 1-kurs

ORCID: 0009-0007-6732-9715

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada markaziy nerv tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan dizatriya nutq buzilishining etiologik omillari, patogenetik mexanizmlari hamda klinik ko'rinishlari ilmiy adabiyotlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, ontogenez jarayonida bo'g'in tuzilishining rivojlanishi, dizatriyalı bolalar nutqida bo'g'in tuzilishining shakllanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, bo'g'in tarkibining soddalashuvi, tovushlarning tushirib qoldirilishi, o'rin almashishi, bo'g'inlarning qisqarishi yoki ortiqcha qo'shilishi kabi fonetik-fonologik buzilishlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** dizatriya, bo'g'in, ontogenez, nutq, serebral falaj, eliziya.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the etiological factors, pathogenetic mechanisms, and clinical manifestations of dysarthria resulting from damage to the central nervous system, based on a review of scientific literature. Special attention is paid to the development of syllabic structure in ontogenesis and to the specific features of syllabic structure formation in the speech of children with dysarthria. In particular, such phonetic and phonological disorders as simplification of syllabic structure, sound omissions, substitutions, syllable reduction, and excessive addition are examined.

**Key words:** dysarthria, syllable, ontogenesis, speech, cerebral palsy, elision.

**Аннотация:** В статье на основе научной литературы комплексно анализируются этиологические факторы, патогенетические механизмы и клинические проявления дизартрии, возникающей вследствие поражения центральной нервной системы. Особое внимание уделяется развитию слоговой структуры речи в онтогенезе, а также особенностям формирования слоговой структуры речи у детей с дизартрией. В частности, рассматриваются такие фонетико-фонологические нарушения, как упрощение слоговой структуры, пропуски звуков, перестановки, сокращение слогов и их избыточное добавление.

**Ключевые слова:** дизартрия, слог, онтогенез, речь, детский церебральный паралич, элизия.

## KIRISH

Respublikamizda maxsus pedagogikaning barcha yo'nalishlari bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va bu borada sezilarli yutuqlarga erishilgan. Xususan, dizatriyani tasniflash, logopedik tekshirish hamda korreksion ishlar tizimini ishlab chiqish yo'nalishida L. Mo'minova, M. Ayupova, M. Mamatova, S. J. Ochilova, Z. I. Sobirova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Dizatriyalı bolalar nutqini korreksiya qilish masalalari bo'yicha esa A. Kussmaul, O. V. Pravdina, L. A. Danilova, Y. M. Mastjukova, E. F. Arxipova, E. N. Vinarskaya, G. V. Chirkina, M. Linskaya, T. A. Garyova, S. Mayevskaya, R. Martinova, Y. F. Sobotov, O. Tokareva kabi xorijiy tadqiqotchilar muhim ilmiy natijalarga erishganlar.

Shuningdek, yengil dizatriyaning kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tashxis qo'yish hamda tuzatish ishlarining mazmuni va usullari O. G. Prixodko, M. A. Muratova, K. A. Semenova, L. V. Lopatina, N. V. Serebryakova, Y. F. Arxipova va boshqa olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

M. Linskayaning ta'kidlashicha, hozirgi kunda logopediyada nutqiy harakat innervatsiyasining yengil yetishmovchiligi bilan bog'liq nutqiy harakat buzilishlariga ega bo'lgan bolalar soni ortib bormoqda. Zamonaviy logopediya fanida markaziy nerv tizimi yetishmovchiligi oqibatida yuzaga keladigan nutq buzilishlarini, xususan, dizatriyani korreksiya qilish masalalari keng qamrovda o'rganilmoqda va bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Mazkur muammolarning dolzarbligi bolalar va kattalar orasida nutq buzilishlarining tarqalishi ortib borayotgani, shuningdek, dizartriya fonetik nutq tomonining markaziy nerv tizimi organik shikastlanishi bilan bog'liqligi bilan izohlanadi. Bunday holatlarda nutq apparati mushaklarining tarangligi va ularning muvofiqlashtirilgan ishlashidagi buzilishlar nafas olish, ovoz hosil qilish va artikulyatsiya jarayonlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Natijada nutqning tezligi va aniqligiga ta'sir ko'rsatuvchi motorik xususiyatlar shakllanadi hamda fonematik tahlil va sintez jarayonlarining rivojlanishi sekinlashadi. Bu esa maktab yoshidagi bolalarda o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bolalik davridagi dizartriya ko'pincha tug'ma holatlar, jumladan, serebral falaj bilan bog'liq bo'lib, bunday bolalarning taxminan 20 foizida nutq dizartriya tufayli buzilgan bo'lishi qayd etiladi.

Yengil dizartriya logopedik amaliyotda keng uchraydi. Ushbu holatda nutqning noaniqligi, ifodasizligi, diksiyaning sustligi, murakkab bo'g'in tuzilishiga ega so'zlarda tovushlarning buzilishi yoki almashishi kabi belgilar kuzatiladi. L. V. Lopatinaning ta'kidlashicha<sup>1</sup>, yengil dizartriya nutq funksional tizimining fonetik hamda prosodik komponentlari buzilishi bilan namoyon bo'ladigan nutq patologiyasi bo'lib, u bosh miyaning yengil darajadagi mikroorganik shikastlanishi natijasida yuzaga keladi.

Ommaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarning 40–60 foizida nutq rivojlanishida turli og'ishlar kuzatiladi. Eng ko'p uchraydigan nutq buzilishlari qatoriga dislaliya, rinofoniya, fonetik-fonematik rivojlanishning yetishmovchiligi hamda stert (yashirin) dizartriya kiradi. Nutqning umumiy rivojlanmaganligi kuzatiladigan guruhlarda bolalarning 50 foizigacha, fonetik-fonematik rivojlanish yetishmovchiligi mavjud guruhlarda esa 35 foizigacha qismida stert dizartriya aniqlanadi. Yengil dizartriya ega bolalar uzoq muddatli va tizimli individual logopedik yordamga muhtoj bo'ladi. Ixtisoslashtirilgan guruhlarda faoliyat yurituvchi logopedlar frontal va kichik guruh mashg'ulotlarida nutqning umumiy rivojlanmaganligini bartaraf etishga qaratilgan ishlarni olib boradilar, individual mashg'ulotlarda esa nutqning talaffuz tomoni va prosodik komponentlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan korreksion tadbirlarni amalga oshiradilar.

Nutq insonning murakkab fikr va g'oyalarni tez va aniq ifodalash imkonini beruvchi muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Muloqotdagi qiyinchiliklar, xususan, serebral falajga chalingan bolalarda, hayot sifatining pasayishi va ijtimoiy ishtirokning cheklanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bois, nutq va muloqot buzilishlariga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan tizimli va maqsadli logopedik ishlar ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini hamda ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yengil dizartriya bolalarda eng ko'p uchraydigan nutqiy belgilaridan biri bo'g'in tuzilishining buzilishidir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yengil dizartriya va nutqning bo'g'in tuzilishi muammosi logopediya hamda maxsus pedagogika sohasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, E. F. Arxipova, L. V. Lopatina, E. N. Vinarskaya, G. V. Chirkina, Y. M. Mastukova kabi olimlar dizartriyaning klinik belgilari, nutq motorikasidagi buzilishlar hamda ularning fonetik-fonologik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab berganlar. A. N. Gvozdev va I. A. Sikorskiy ishlanmalarida so'zning bo'g'in tuzilishini o'zlashtirish jarayoni hamda uning ontogenezdagi bosqichlari tizimli tarzda yoritilgan. R. L. Levina esa bo'g'in tuzilishi buzilishlarini darajalar bo'yicha tasniflab, ularning nutq rivojlanishiga ta'sirini asoslab ko'rsatib bergan. Shuningdek, E. N. Vinarskaya va G. M. Bogomazova tadqiqotlarida ritmik va bo'g'in tuzilishining shakllanishi sensor-motor omillar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu ilmiy yondashuvlar yengil dizartriya bolalarda bo'g'in tuzilishini chuqur o'rganish va samarali korreksiyalash zarurligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatuv va taqqoslash metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida yengil dizartriyaning nutqning bo'g'in tuzilishiga ta'siri o'rganildi. Maktabgacha yoshdagi yengil dizartriya bolalarning nutqi tizimli ravishda kuzatilib, bo'g'in tuzilishidagi buzilishlar, jumladan, eliziyalar, iteratsiyalar va o'rin almashishlar tahlil qilindi. Olingan natijalar me'yoriy nutq rivoji ko'rsatkichlari bilan solishtirildi hamda muammo omillarini aniqlash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nutqida nuqsonlari bo'lgan bolalarda so'zning bo'g'in tuzilishini o'zlashtirish jarayoni yetarli darajada o'rganilmagan. Bir qator mualliflar nutqning fonetik tomonida alohida tovushlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, so'zning bo'g'in tuzilishini o'zlashtirish jarayonini ham mustaqil jarayon sifatida ajratib ko'rsatish zarurligini ta'kidladilar.

<sup>1</sup> Лопатина, Л. В. Логопедическая работа с детьми дошкольного возраста с минимальными дизартрическими расстройствами – учебное пособие. Санкт-Петербург: Союз, 2004/2005. ISBN 5-94033-041-X. 190 с.



Jumladan, I. A. Sikorskiy o'z kuzatuvlarida ayrim bolalar nutqning tovush yoki bo'g'in xususiyatlarini ustuvor ravishda o'zlashtirishi mumkinligini ko'rsatuvchi dalillarni keltiradi. Uning misollarida "tovush yo'nalishi"ga mansub bolalar so'zdagi bir yoki bir nechta tovushni noto'g'ri talaffuz qilish bilan ajralib turadi. "Bo'g'in yo'nalishi"ga mansub bolalar esa so'zning bo'g'in tarkibini to'g'ri anglaydilar, biroq uning tovush tarkibini buzadilar va bunda cheklangan miqdordagi tovushlardan foydalanadilar. Sikorskiy keltirgan ma'lumotlar so'zning bo'g'in tuzilishini o'zlashtirish jarayoni alohida tovushlarni egallash jarayoniga nisbatan ma'lum darajada mustaqil ekanligini ko'rsatadi. Ayrim ilmiy ishlarda nutqi me'yorida rivojlanayotgan bolalarda so'z tuzilishini o'zlashtirishni belgilovchi omillar masalasi ham ko'rib chiqilgan. Jumladan, A. N. Gvozdev so'zning bo'g'in tarkibini o'zlashtirish jarayonini tahlil qilar ekan, rus tilidagi so'zlarning bo'g'in tuzilishiga xos xususiyat – urg'usiz bo'g'inlar kuchining bir xil emasligiga e'tibor qaratadi.

Bo'g'in tuzilishini egallash jarayonida bola so'z bo'g'inlarini ularning nisbiy kuchiga qarab talaffuz qilishni o'rganadi: dastlab butun so'zdan faqat urg'uli bo'g'in ifodalanadi, keyin birinchi urg'udan oldingi bo'g'in paydo bo'ladi va nihoyat kuchsiz urg'usiz bo'g'inlar o'zlashtiriladi. Kuchsiz urg'usiz bo'g'inlarning tushirib qoldirilishi ularning tarkibidagi tovushlarni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli turli tovushlar va tovush birikmalarining o'zlashtirilishi bevosita bo'g'in tuzilishini egallash jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Gvozdev bo'g'inlarning nisbiy kuchini "so'z tarkibida ayrim bo'g'inlarning saqlanib qolishi va boshqalarining tushirib qoldirilishiga ta'sir qiluvchi asosiy sabab" sifatida ta'riflaydi<sup>2</sup>. Ma'lumki, so'zlar bir nechta bo'g'indan iborat bo'lib, ularning markazida eng katta kuch va aniq talaffuz bilan ajralib turadigan urg'uli bo'g'in joylashadi. Unga kuchi nisbatan kamroq bo'lgan urg'usiz bo'g'inlar tutashadi. Rus tili so'zlarining bo'g'in tuzilishida urg'usiz bo'g'inlar kuchining bir xil emasligi xos bo'lib, ular orasida eng kuchlisi birinchi urg'udan oldingi bo'g'in hisoblanadi. So'zning bo'g'in tuzilishiga xos ushbu xususiyatlar bolalar tomonidan so'zlarni qayta talaffuz qilish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. T. G. Yegorova so'zdagi tovushni ajratib olishga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilar ekan, tovush muhiti bilan bir qatorda bo'g'in va ritmik tuzilishning ham muhimligini ta'kidlaydi: bola ochiq bo'g'inli ikki bo'g'inli so'zlardan tovushlarni ajratishni nisbatan oson bajaradi, bitta yopiq bo'g'inli so'zlarni tahlil qilish esa qiyinroq bo'ladi, undoshlar ketma-ket kelgan so'zlarni tahlil qilish esa eng murakkab hisoblanadi. Bo'g'in va bo'g'in ajratish masalalari qadimdan lingvistlar e'tiborini tortib kelgan.

Bo'g'in odatda nutq oqimidagi eng kichik birlik sifatida qoraladi. Artikulatsion nuqtai nazardan bo'g'in minimal talaffuz birligi sifatida aniqlanadi, ya'ni u bitta nafas urishi yoki bitta mushak tarangligi impulsi natijasida hosil bo'lgan nutq harakatlari ketma-ketligidir (L. V. Shcherba) yoki bitta boshqaruv buyrug'i ta'sirida yuzaga keladi (L. A. Chistovich va boshqalar). Akustik yondashuvda bo'g'in ovozning kuchayishi va susayishi to'liqini sifatida tavsiflanadi. Har ikkala yondashuvda ham bo'g'inning markazi sifatida undosh emas, balki unli tovush – bo'g'in hosil qiluvchi element hisoblanadi, undoshlar esa uning periferik elementlari sifatida qoraladi.

Normal holatda uch yoshdan keyin bo'g'in tuzilishi asosan shakllangan deb hisoblanadi, biroq ayrim hollarda uch yoshdan keyin ham bo'g'in tuzilishidagi buzilishlar saqlanib qolishi va barqaror namoyon bo'lishi mumkin. Tovushlarni talaffuz qilishdagi buzilishlar hamda so'zlardagi tovush to'liqligining buzilishi bilan birga, bo'g'in tuzilishidagi kamchiliklar ko'pincha bolaning nutqini atrofdegilar uchun tushunarililigini pasaytiradi. Shuningdek, bu holat nutqning asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan kommunikativ vazifaning to'laqonli amalga oshishiga ham ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Bo'g'in tuzilishining buzilishi so'z boyligi va grammatik tizimning rivojlanishini sekinlashtiradi hamda nutqning tizimli yetishmovchiligi bilan bog'liq boshqa belgilarni yuzaga keltiradi. Mahalliy adabiyotlarda nutqning tizimli buzilishlariga ega bolalarda bo'g'in tuzilishini o'rganish keng yoritilgan mavzulardan biri hisoblanadi.

A. K. Markova bo'g'in tuzilishini so'zdagi urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning turli darajadagi murakkablikdagi navbatlashuvi sifatida ta'riflaydi va so'zning bo'g'in tuzilishini to'rtta parametrga – urg'u, bo'g'inlar soni, bo'g'inlarning ketma-ketligi hamda bo'g'inning shakli orqali tavsiflaydi. Shu bois, logoped so'z tuzilishining murakkablashuvi jarayonini bilishi, eng ko'p uchraydigan bo'g'in strukturalari sinflarini tekshirishi hamda tekshiruv jarayonida nafaqat bolaning shakllangan bo'g'in klasslarini, balki hali shakllanishi lozim bo'lganlarini ham aniqlashi zarur. Bundan tashqari, mutaxassis bolada bo'g'in tuzilishidagi buzilish turini belgilashi lozim, chunki bu buzilishlar murakkab bo'g'in tuzilishiga ega so'zlarni talaffuz qilishdagi yengil qiyinchiliklardan tortib, sezilarli darajadagi buzilishlarga ega bo'lgan keng diapazonda namoyon bo'lishi mumkin.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bo'g'in tuzilishidagi buzilishlar so'zning bo'g'in tarkibini turlicha o'zgartiradi va eng ko'p uchraydigan holatlar bo'g'inlar sonining kamayishi yoki ortishi, shuningdek, bo'g'inlar ketma-ketligi va tarkibining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Xususan, eliziya holatlarida bo'g'inlar qisqaradi yoki tushib qoladi, iteratsiyalarda esa bo'g'in hosil qiluvchi unli tovush qo'shilishi natijasida bo'g'inlar soni ortadi, bu ayniqsa undoshlar birikmasi mavjud so'zlarda yaqqol ko'zga tashlanadi; ayrim hollarda bo'g'inlarning o'rni almashadi yoki qo'shni bo'g'inlardagi tovushlar almashtiriladi, bunda bo'g'inlar soni saqlanib qolgan holda bo'g'in tarkibi sezilarli darajada buziladi.

2 Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. – М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 2005.



R. L. Levina bo'g'in tuzilishi buzilishlarini uch darajaga ajratadi: birinchi darajada so'zning bo'g'in tuzilmasini qayta ishlab chiqarish qobiliyati cheklangan bo'lib, bolalarning mustaqil nutqida asosan bir yoki ikki bo'g'inli birliklar ustunlik qiladi va takroriy nutqda so'zlarni qisqartirish tendensiyasi kuzatiladi; ikkinchi darajada bolalar so'zning umumiy konturini saqlagan holda uni takrorlay oladilar, biroq tovush tarkibi yetarlicha aniq bo'lmaydi va ayniqsa undoshlar to'qnashuvi mavjud so'zlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ba'zan ko'p bo'g'inli tuzilmalar ham qisqartiriladi; uchinchi darajada esa so'zlarning bo'g'in tuzilmasi asosan saqlanadi va faqat ayrim hollarda tovushlar yoki bo'g'inlarning o'zni almashishi kabi qoldiq hodisalar kuzatiladi, bu esa ko'proq notanish so'zlarni takrorlash jarayonida namoyon bo'ladi.

Bo'g'in tuzilishining rivojlanishi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. E. N. Vinarskaya va G. M. Bogomazova ayrim bolalarda so'zning ritmik tuzilishi avval shakllanishini, boshqalarda esa dastlab bo'g'inlar, ya'ni so'z ildizlari paydo bo'lishini ta'kidlaydilar va buni kinestetik hamda eshitish sezgirlikning turli darajada rivojlanganligi bilan izohlaydilar. Kinestetik sezgirlik ustun bo'lgan bolalarda so'zning ritmik tuzilishi tezroq egallanishi, eshitish sezgirlik rivojlangan bolalarda esa bo'g'inlararo fonetik kontrastlarning erta shakllanishi kuzatiladi. Fonetik bo'g'in tushunchalari va ritmik fonetik tuzilmalar turli fiziologik modaliteler – kinestetik, akustik, vestibulyar, taktil va vizual kanallar orqali afferent signal bilan ta'minlanadi, shu sababli nutq buzilishiga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish jarayonida ushbu omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi yengil dizartriya bolalarda bo'g'in tuzilishining rivojlanishi yosh me'yorlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu jarayonga tovushlar talaffuzidagi qiyinchiliklar, fonematik idrokning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda artikulyatsion motorika bilan bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, mazkur omillarni hisobga olgan holda tashkil etilgan tizimli va maqsadli logopedik ta'sir choralarini kuchaytirish bo'g'in tuzilishini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yengil dizartriya bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishining shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu jarayon markaziy nerv tizimining mikroorganik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan artikulyatsion motorika yetishmovchiligi, fonematik idrokning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda nutqiy harakatlarni kinestetik nazorat qilishdagi qiyinchiliklar bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday bolalarda so'zlarning bo'g'in tarkibi ko'pincha turli o'zgarishlarga uchraydi, ya'ni bo'g'inlarning tushib qolishi (eliziylar), ortiqcha qo'shilishi (iteratsiyalar), o'rin almashishi hamda tovush tarkibining soddalashuvi kabi fonetik-fonologik xususiyatlar kuzatiladi. Mazkur holatlar nutqning aniqligi, ravonligi va tushunarililigiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi hamda kommunikativ jarayonning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, yengil dizartriya bolalarda bo'g'in tuzilishining shakllanishi ontogeneznining me'yoriy rivojlanish ko'rsatkichlariga nisbatan nisbatan sekinroq kechishi aniqlangan. Bo'g'in tuzilishini egallash darajasi artikulyatsion apparatning motorik holati, fonematik tahlil va sintez jarayonlarining shakllanganlik darajasi, shuningdek, eshitish va kinestetik sezgirlikning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, bunday bolalar bilan olib boriladigan logopedik korreksion ishlar kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi, unda artikulyatsion motorikani rivojlantirish, fonematik idrokni shakllantirish, bo'g'in tuzilishini bosqichma-bosqich o'zlashtirish hamda nutqning ritmik-intonatsion komponentlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, yengil dizartriya bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishini o'rganish va uni korreksiya qilish logopediya amaliyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bo'g'in tuzilishining o'z vaqtida va izchil shakllantirilishi bolalarda nutqning fonetik-fonologik tizimini to'liqroq rivojlantirishga, shuningdek, ularning kommunikativ kompetensiyasi hamda keyingi o'qish va yozish ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallashiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лопатина, Л. В. Логопедическая работа с детьми дошкольного возраста с минимальными дизартрическими расстройствами – учебное пособие. Санкт-Петербург: Союз, 2004/2005. ISBN 5-94033-041-X. 190 с.
2. Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. – М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 2005.
3. Kennes J., Rosenbaum P., Hanna S. E., Walter S., Russell D., Raina P., et al. Health status of school-aged children with cerebral palsy: information from a population-based sample. *Developmental Medicine & Child Neurology*, 2002; 44: 240–247.
4. Nordberg A., Miniscalco C., Lohmander A., Himmelmann K. Speech problems affect more than one in two children with cerebral palsy: Swedish population-based study. *Acta Paediatrica, International Journal of Paediatrics*, 2013; 102(2): 161–166.
5. Архипова Е. Ф. Стертая дизартрия у детей. – М.: АСТ; Астрель, 2007.
6. Dickinson H. O., Parkinson K. N., Ravens-Sieberer U., Schirripa G., Thyen U., Arnaud C., et al. Self-reported quality of life of 8–12-year-old children with cerebral palsy: a cross-sectional European study. *The Lancet*, 2007; 369(9580): 2171–2178.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.